Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 008

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

INGLIZ VA O‘ZBEK XALQ ERTAKLARIDAGI PERSONAJLAR XARAKTERINI PSIXOLINGVISTIK MODELLASHTIRISH MASALALARI

Dilnoza Faxridinovna Qurbonova*

Buxoro davlat universiteti

✉ dqurbonova517@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda ingliz va o‘zbek xalq ertaklari personajlarining xarakter xususiyatlari ularning nutqiy xulq-atvori asosida qiyosiy-psixolingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Dev–giant va kenja qahramon–Molly Whuppie obrazlari misolida tipologik o‘xshashlik hamda milliy-madaniy farqlar aniqlanadi. Personaj nutqini modellashtirishning funksional-tipologik, milliy-madaniy va nutqiy-lisoniy bosqichlardan iborat konseptual modeli taklif etiladi.

Kalit so‘zlar

xalq ertagi, personaj, xarakter, nutqiy xulq-atvor, psixolingvistika, modellashtirish, qiyosiy tahlil, ingliz folklori, o‘zbek folklori.

DOI: 10.5281/zenodo.23277776

Xalq ertaklari nafaqat xalq badiiy tafakkurining, balki uning lisoniy ongining ham o‘ziga xos manbai hisoblanadi. Ertak matnida personajlarning nutqi tasodifiy shakllanmaydi, u ma’lum bir xarakter tipini, ijtimoiy mavqeni va milliy-madaniy tasavvurni ifodalovchi barqaror lisoniy vositalar orqali yuzaga chiqadi. Shu bois xalq ertaklaridagi personajlar nutqini psixolingvistik jihatdan o‘rganish nafaqat folklorshunoslik, balki zamonaviy psixolingvistika uchun ham dolzarb yo‘nalishlardan biri sanaladi. Bugungi kunda ingliz va o‘zbek folklorshunosligida personajlar tipologiyasi ancha chuqur o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning nutqiy xulq-atvorini qiyosiy-psixolingvistik nuqtai nazardan modellashtirishga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotlar hali yetarli emas. Mazkur maqolaning maqsadi — ingliz va o‘zbek xalq ertaklaridagi personajlar xarakterini ifodalovchi nutqiy vositalarni tipologik jihatdan qiyoslash va bu asosda psixolingvistik modellashtirishning nazariy asoslarini belgilashdan iborat.

Psixolingvistika fani nutq faoliyatini shaxsning psixologik jarayonlari bilan bog‘liq holda o‘rganadi. A.A. Leontyev ta’kidlaganidek, nutq faoliyati alohida faoliyat turi bo‘lib, u muayyan motiv, maqsad va vositalar orqali amalga oshadi [Леонтьев, 1997]. V.P. Belyanin psixolingvistikani nutqning yuzaga kelishi va idrok etilishi mexanizmlarini o‘rganuvchi fan sifatida belgilaydi va bu jarayonda so‘zlovchining shaxsiy-psixologik xususiyatlari muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi [Белянин, 2016]. L.S. Vigotskiyning tafakkur va nutq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik haqidagi g‘oyasi [Выготский, 1934] esa personaj nutqini uning ichki dunyoqarashi va xarakterining ifodasi sifatida tahlil qilish uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Yu.N. Karaulovning lingvistik shaxs nazariyasi [Караулов, 1987] personajning nutqiy portretini uch bosqichda lisoniy-semantik, kognitiv va pragmatik darajalarda tavsiflash imkonini beradi. Ushbu nazariyalar majmui xalq ertagi personajining nutqini tizimli tahlil qilish zarur nazariy-metodologik bazani tashkil etadi.

Personajlar tipologiyasi masalasida V.Ya. Proppning ertak morfologiyasi uchunnazariyasi [Пропп, 1928] va Ye.M. Meletinskiyning qahramon tiplari haqidagi tadqiqoti [Мелетинский, 2005] alohida ahamiyatga ega. Ushbu nazariyalar personajlarni funksional jihatdan tasniflash imkonini beradi. Biroq funksional o‘xshashlik hali nutqiy o‘xshashlikni anglatmaydi — har bir xalqning milliy-madaniy tasavvuri bir xil funksiyani bajaruvchi personajga turlicha lisoniy qiyofa beradi. Buni ko‘rsatish uchun ingliz va o‘zbek folkloridagi antagonist-g‘ayritabiiy kuch obrazlari — ”dev” va ”giant” — misolida qisqacha qiyosiy kuzatuv o‘tkazish maqsadga muvofiqdir.

O‘zbek xalq ertaklarida dev obrazi, M. Jo‘rayev ko‘rsatganidek, ko‘pincha ulkan jussali, vahshiy kuchga ega, biroq aql jihatidan kambag‘al mifologik mavjudot sifatida talqin etiladi [Jo‘rayev, 2012, B. 45-46]. Bu xususiyat uning nutqida ham aks etadi: dev nutqi, odatda, qo‘pol buyruq va tahdid shaklidagi qisqa gaplardan iborat bo‘lib, undan uzoq mulohaza yoki nozik pragmatik strategiya kutilmaydi — uning kuchi jismoniy zo‘ravonlikda, aql-idrokda emas. Ingliz ertaklaridagi giant obrazi ham xuddi shunday tipologik funksiyani bajaradi: J. Jacobs to‘plagan ”Jack and the Beanstalk” ertagida giant o‘zining ulkan kuchini tahdidli, qisqa va buyruqona iboralar orqali namoyon qiladi [Jacobs, 1890, p. 59-67]. K. Briggs ham ingliz folkloridagi giant obrazini aynan shu — kuchli, biroq aqliy jihatdan cheklangan mavjudot sifatida tavsiflaydi [Briggs, 1967, p. 63-65]. Demak, ikki xalq folklorida ham funksional jihatdan bir xil vazifani bajaruvchi ushbu obrazlarning nutqiy xulq-atvorida sezilarli tipologik o‘xshashlik mavjud: qisqa buyruq gaplar, tahdid semantikasi, dialogik murakkablikning yo‘qligi. Farq esa, birinchi navbatda, milliy-madaniy detallarda masalan, dev obrazining o‘zbek mifologiyasida ko‘pincha boshqa g‘ayritabiiy mavjudotlar (pari, yalmog‘iz) bilan o‘zaro munosabatga kirishishida va bu munosabatning nutqiy ifodasida namoyon bo‘ladi.

Xuddi shunday tipologik parallellikni ijobiy qahramon obrazida ham, boshqa bir personaj jufti misolida kuzatish mumkin. O‘zbek xalq ertaklarida keng tarqalgan kenja botir obrazi — oilaning eng kichik, dastlab kam e’tiborga olingan, biroq oxir-oqibat qiyinchiliklarni yengib o‘tuvchi qahramon o‘zining nutqiy xulq-atvorida bosqichma-bosqich o‘zgarishni namoyon qiladi: boshida oddiy va kamgap so‘zlashuvchi sifatida tasvirlangan bo‘lsa, sinovlar chog‘ida uning nutqida topqirlik, hiyla va g‘alaba ifodalovchi jumlalar kuchayib boradi. Ingliz folkloridagi Molly Whuppie obrazi ham — J. Jacobs to‘plagan xuddi shu to‘plamdagi boshqa bir ertakda — o‘xshash funksional o‘rinni egallaydi: uch opa-singilning eng kichigi bo‘lgan qahramon, boshida kuchli devga qarshi ojiz ko‘ringan bo‘lsa-da, hiyla-nayrang va o‘tkir topqirlik bilan ifodalangan nutqiy strategiyalar orqali uni mag‘lub etadi [Jacobs, 1890]. Demak, ikkala xalq ertagida ham ”kenja/kichik qahramon” tipining nutqiy evolyutsiyasi o‘xshash yo‘nalishda kechadi: dastlabki ojiz-itoatkor nutqdan g‘olib-topqir nutqqa o‘tish. Bu esa personaj xarakterining o‘zgarishini uning nutqiy naqshlari orqali kuzatish mumkinligini, ya’ni xarakterning o‘zi psixolingvistik jihatdan ”harakatlanuvchi” kategoriya ekanligini ko‘rsatadi — bu esa modellashtirish jarayonida statik tipologiyadan farqli o‘laroq, dinamik tahlil zarurligini taqozo etadi.

Yuqoridagi kuzatuv shuni ko‘rsatadiki, xalq ertagi personajining nutqini psixolingvistik modellashtirish kamida uch bosqichni o‘z ichiga olishi lozim: birinchidan, personajning tipologik-funksional mavqeini aniqlash; ikkinchidan, ushbu mavqening milliy-madaniy variantlarini aniqlash; uchinchidan, bularning barchasi personaj nutqida qanday lisoniy vositalarorqali ifodalanishini tahlil qilish. Aynan shu uch bosqichli yondashuv ingliz va o‘zbek xalq ertaklari personajlarini qiyosiy-psixolingvistik jihatdan modellashtirish uchun ishonchli metodologik asos bo‘la oladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan ikkita misol mustaqil hodisalar emas, balki bir umumiy qonuniyatning ikki ko‘rinishidir: xalq ertagi personajining nutqi uning ijtimoiy-mifologik mavqeidan kelib chiqadi va bu mavqe ikki xalqda tipologik jihatdan mos kelsa-da, milliy-madaniy kontekstga ko‘ra o‘ziga xos lisoniy shakl oladi. Bunday qonuniyatni aniqlash amaliy nuqtai nazardan ham muhim: u xalq ertaklarini tarjima qilishda personaj nutqining uslubiy-pragmatik xususiyatlarini saqlab qolish, shuningdek, chet tili sifatida o‘zbek yoki ingliz tilini o‘rgatishda madaniyatlararo materialdan foydalanish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu bilan birga, taklif etilayotgan uch bosqichli model kelgusi tadqiqotlarda personajlar nutqini miqdoriy ko‘rsatkichlar (masalan, buyruq gaplar chastotasi) orqali ham baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek xalq ertaklaridagi personajlar xarakterini psixolingvistik modellashtirish ularning nafaqat badiiy-tipologik, balki lisoniy-kognitiv tabiatini ham ochib berish imkonini beradi.

Dev-giant va kenja botir-Molly Whuppie obrazlari misolida ko‘rsatilgan qiyosiy tahlil ushbu yo‘nalishning ilmiy salohiyatini tasdiqlaydi. Kelgusi tadqiqotlarda bu yondashuvni ertaklarning boshqa personaj tiplari (ijobiy qahramon, yordamchi obrazlar)ga ham tatbiq etish, shuningdek, har bir tip uchun nutqiy-psixolingvistik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Выготский Л.С. Мышление и речь. – М.: Соцэкгиз, 1934. – 324 с.

[2] Леонтьев А.А. Основы психолингвистики. – М.: Смысл,1997. – 287 с.

[3] Белянин В.П. Психолингвистика. – М.: Флинта, 2016. – 416 с.

[4] Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 263 с.

[5] Пропп В.Я. Морфология сказки. – Л.: Academia, 1928. – 152 с.

[6] Мелетинский Е.М. Герой волшебной сказки. – М.: Восточная литература РАН, 2005. – 240 с.

[7] Jo‘rayev M. O‘zbek mifologiyasi. – Toshkent: Fan, 2012. – 212 b.

[8] Jacobs J. English Fairy Tales. – London: David Nutt, 1890. – 284 p.

[9] Briggs K. The Fairies in English Tradition and Literature. – Chicago: University of Chicago Press, 1967. – 296 p.